

O'ZIGA XOS DUNYOSI BO'LGAN – AUTIZM SINDROMLI BOLALAR

Mamatkulova Lobar Tolibjonovna-

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Maxsus pedagogika kafedrası p.f.b.f.d, PhD

lobarmamatkulova1982@gmail.com

Keldiyorova Sevinch Chori qizi-

sevinchkeldiyorova05@icloud.com

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Maxsus pedagogika, defektologiya

(logopediya) yo'nalishi 1- bosqich magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada autizm sindromli bolalar, ularning asosiy belgilari, olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlar, ijtimoiylashuv jarayonlari mazmuni yoritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются дети с синдромом аутизма, их основные признаки, содержание проводимой коррекционно-педагогической работы, процессы социализации.

Abstract: This article covers children with autism syndrome, their main symptoms, the corrective and pedagogical work carried out, and the content of socialization processes.

Kalit so'zlar: autizm, korreksiya, nutq, muloqot, xohish, rivojlanish, erta tashxis, defektolog, logoped, ota-ona, hamkorlik, ehtiyoj.

Ключевые слова: аутизм, коррекция, речь, общение, желание, развитие, ранняя диагностика, логопед, воспитание детей, сотрудничество, потребность.

Keywords: autism, correction, speech, communication, desire, development, early diagnosis, defectologist, speech therapist, parent, cooperation, need.

Bugungi kunda autizm sindromli bolalar soni ortib borayotgani sababli ularni nutq rivojlanishini ta'minlash maktabgacha ta'lim tizimida dolzarb masala hisoblanadi.

Sensor sohani bosqichma-bosqich rivojlantirish esa og'zaki nutq faoliyatini shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda har 88 nafar bolaning biriga autizm tashxisi qo'yilmoqda. Autizm o'zi nima? Autizm grekcha "autos" - "o'zim" degan ma'noni anglatadi. Autizm sindromli bolalarda jamiyatga qo'shilish, atrofdagilar bilan muloqot qilishga xohish bo'lmaydi. Ular yolg'izlikni yoqtiradi. Har bir autizm sindromli bola o'ziga xos inson ichki holatini boshqarish uchun takrorlanuvchi harakatlar yoki ovozlarni chiqarish orqali tinchlanadi yoki diqqatini jamlaydi. Masalan, qo'llarini qattiq silkitish, juda baland ovozda ba'zan esa juda past ovozda biron so'zni vokalizatsiya qilishi, sakrash, yugurish yoki tinmay tebranish kabilarni aytishimiz mumkin. Bunday harakatlar hissiy kechinmalarga bog'liq bo'ladi. Xursand bo'lishi, hayajonlanishi yoki yig'lashda xatti-harakatlar o'zgarishi mumkin. Autizm sindromi qizlarga qaraganda o'g'il bolalarda ko'proq kuzatiladi.

Autizm sindromini keltirib chiqaruvchi sabablaridan bu genetik omillar yoki homila rivojlanishidagi buzilishlardir. Tadqiqotlarga ko'ra, ayrim genlar aytizmga moyillikni oshiradi, ayniqsa oilada nevrologik kasalliklar kuzatilganda...

Bolalarda autizm rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar:

Tug'ma omillar:

- irsiyat (oilada RAS bo'lsa xavf yuqori)
- xromosoma buzilishlari (masalan, Martin-Bell, Daun sindromi)
- homiladorlik davridagi ta'sirlar: homiladorlik asoratlari, gipoksiya, infeksiyalar, ona gestatsion diabeti, noto'g'ri dori qabul qilish, ruhiy kasalliklar, narkotik moddalarga qaramlik

Orttirilgan omillar:

- bosh miya jarohatlari
- ayrim virus infeksiyalari

Aytizm rivojlanishining vaksinalar bilan bog'liqligi haqidagi fikrlar ilmiy asosga ega emas. Ko'plab tadqiqotlar vaksinatsiya bilan RAS rivojlanishi orasida bog'liqlik yo'qligini ko'rsatgan.

Autizm sindromi bo'lgan bolalarda ko'p hollarda muloqot qilishning buzilishi, mutizm kuzatiladi. Nutqning turg'un shakllari rivojlangan vaqtda ham autizm sindromli bolalar ularni muloqot jarayonida qo'llamaydilar. Autizm sindromli bola o'ziga qaratilgan nutqqa javob bermaydi, o'zi savol bermaydi, o'zaro muloqotdan qochadi. Autizmni imkon qadar erta tashxis qilish juda muhim. Tashxis qanchalik tez qo'yilsa, bolani moslashishiga yordam berish shunchalik tez boshlanadi. Bu uning jamiyatga qo'shilishi, mustaqil bo'lishi va baxtli hayot kechirish imkoniyatini oshiradi. Erta boshlangan ish har bir bolaning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda individual yondashuvni tanlashga yordam beradi.

Autizmning asosiy belgilari bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davrda quyidagilar bilan namoyon bo'ladi:

-bola ota-ona, yaqinlari bilan birga bo'lishni yoqtirmasligi (ko'tarishi, quchoqlashi, silashi, erkalashi va h.k.);

-uch yoshli bolani nutqi rivojlanmaganligi;

-yolg'iz bo'lishni xohlashi;

-buyumlarni doim bir xil tartibda qo'yishi;

-atrof-muhitga qiziqmasligi;

-atrofdagilar ko'ziga qaramasligi;

-bolaning harakatlari, imo-ishoralari hech narsani bildirmasdan, asabiylashganini ko'rsatishi;

-bola bir xil tonda, ifodasiz, xuddi bir yod olgan matnni ifodalayotgandek gapirishi;

-odatdan tashqari idrok etish reaksiyalariga (ovozga, hidga, ta'mga, ushlab ko'rishlariga) e'tiborli bo'lishi.

Bolaning yoshi ulg'ayib borgani sari mutaxassislar jamoasida defektolog-logoped muhim o'rinni egallaydi. Ularni boricha, qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish lozim. Har bir autizm sindromli bolada yashirin qobiliyat bo'lib, uni yuzaga chiqarish faqat defektolog-logopedlarga va bolalarning ota-onalariga bog'liq

bo'лади. Bolani qiziqishlariga qarab mashg'ulotlar olib boriladi. Ko'chada, jamoat joylarida o'zlarini qanday tutishlari kerakligi ham o'rgatib boriladi.

Autizm sindromli bolalar muammolarini ko'rib chiqish jarayonida shuni xulosa qilish mumkinki, ularning reabilitatsiyasida asos – bolalarning kundalik hayotini korreksiyalashni tashkil etishdir. Bu jarayonda mutaxassislar va ota-onalar hamkorlikda ishlaydi. **Autizm sindromli bolalar bilan ishlash jarayoni ko'p qirrali va uzluksiz yondashuvni talab etadi. Autizmning erta aniqlanishi individual ta'lim dasturlarining ishlab chiqilishi va bolalarning ijtimoiy moslashuvini**

ta'minlash asosiy ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Maxsus pedagogika, psixologiya va tibbiyot sohalarining o'zaro hamkorligi autizm sindromli bolalar rivojlanishini samarali qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Har bir bolaning sensor, nutqiy, kognitiv va ijtimoiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda kompleks yondashish ularning mustaqilligi, o'zini boshqarish ko'nikmalari hamda jamiyatga moslasha olishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xamidova M.U. Maxsus pedagogika . – T.: Fan va texnologiya, 2018.
2. Muminova L.R., Abidova N.Z., Maxsus psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.